


2020-yil yanvar-mart oylarida Toshkent shahrida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Butun dunyoda iqtisodiy rivojlanishning eng muhim qonuniyatlaridan biri, iqtisodiy o'sishning o'zaro bog'liqligi va milliy iqtisodiyotda xizmatlarning tobora ortib borayotgan roli hisoblanadi, bu xizmatlar sohasida foydalaniladigan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar ulushining ortishi bilan izohlanadi.

Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Bu yerda, xususan, sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

2020-yil 1-aprel holatiga Toshkent shahrida jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 87,3 mingtaga yetdi. Xizmatlar sohasida 64,1 mingtasi iqtisodiy faoliyat turi xizmatlar sohasiga to'g'ri kelib, jamiga nisbatan 73,4 % ga yetib, 2019-yilning shu davriga nisbatan ularning o'sishi 18,7 % ga oshdi.

2020-yil 1-aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(dastlabki ma'lumotlar)

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo xizmatlari bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (35,1 %) yuqori ulushni egallaydi.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar soni 9,7 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi xizmatlar sohasiga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 5,5 % ga yetdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 5,2 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash hamda ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi 2,5 % ni tashkil etdi.

2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tuzilmasi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Kichik tadbirkorlik subyektlari mamlakatda xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shmoqda va shu sababli, tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish zarur.

(dastlabki ma'lumotlar)

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli korxonalarning o'sishi xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2020 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni, ming birlik



(dastlabki ma'lumotlar)

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining tumaniy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik tumanlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligi va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.



O'sish sur'ati
112,7 %

Hajmi 3 816,1
mlrd. so'mga
oshdi


Xizmatlar hajmi
17 322,1
mlrd. so'm

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 17 322,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Uning nominal hajmi 3 816,1 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish 12,7 % ni tashkil etdi.

2020-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



Moliyaviy xizmatlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari



Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar



Savdo xizmatlari



Shaxsiy xizmatlar




Ta'lim sohasidagi xizmatlar



Boshqa xizmatlar




Ijara xizmatlari



Me'morchilik, muhandislik izlanishlar, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar



Transport xizmatlari



Yashash va ovqatlanish xizmatlari

Eng yuqori o'sish sur'ati moliyaviy xizmatlar (133,5 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (121,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (118,9 %), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (108,6 %), savdo xizmatlari (105,8 %) va shaxsiy xizmatlar (105,0 %) qayd etildi.

Yuqori bo'lmagan o'sish transport xizmatlar (98,1 %), shuningdek yashash va ovqatlanish xizmatlarida (96,3 %) qayd etildi.

**2020-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	17 322,1	112,7
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1 547,8	118,9
Moliyaviy xizmatlar	5 505,7	133,5
Transport xizmatlari	1 782,4	98,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 145,0	106,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	620,3	96,3
Savdo xizmatlari	3 939,1	105,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	738,0	102,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	833,7	103,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	345,7	121,9
Ijara xizmatlari	365,2	103,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	83,9	108,6
Shaxsiy xizmatlar	222,0	105,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	477,2	98,6
Boshqa xizmatlar	861,2	103,5

Sifatli o'zgarishlar va institutsional islohotlar chuqurlashishi bilan bir qatorda chakana savdo, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmatlar kabi xizmat turlari asosan xususiy tadbirkorlikni faollashuvi hisobiga jadal rivojlanmoqda.

Davlatning iqtisodiy siyosatida axborot kommunikatsiya xizmatlari (mobil aloqa, Internet, raqamli televideniye va hokazo) kabi zamonaviy aloqa xizmat turlarini, shuningdek zamonaviy moliyaviy xizmat turlarini (bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, konsalting va boshqalar) rivojlantirish bo'yicha masalalar alohida ahamiyatga ega.


2020-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tuzilmasi, % da



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 17 322,1 mlrd. so'mga teng bo'lib, uning nominal hajmi 3 816,1 mlrd. so'mga oshdi.

Bozor xizmatlarining umumiy hajmida Yunusobod tumanining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 17,7 %ni tashkil etadi. Bu aholi real daromadlari boshqa tumanlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.


**2020-yil yanvar-mart oylarida bozor
xizmatlarining umumiy hajmida tumanlar ulushi, % da**



Shuningdek, eng katta ulush Mirobod (16,5 %), Yashnobod (11,4 %), Chilonzor (10,9 %), Mirzo Ulug'bek (9,9 %) va Shayxontohur (9,6 %) tumanlarida qayd etilgan.

Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Yakkasaroy (5,7 %), Olmazor (5,7 %), Uchtepa (4,8 %), Sirg'ali (4,6 %), Bektemir (2,7 %) tumanlarida qayd etildi.

2020-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



Eng yuqori o'sish sur'ati moliyaviy xizmatlar (133,5 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (121,9 %), aloqa va axborotlashtirish (118,9 %), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (108,6 %), savdo xizmatlari (105,8 %), shaxsiy xizmatlar (105,0 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (103,6 %) va boshqa xizmatlar (103,5 %)da qayd etildi.

Eng past o'sish sur'atlari ijara xizmatlar (103,0 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (102,3 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlar, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (98,6 %), transport xizmatlari (98,1 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (96,3 %)da qayd etildi.

**2020-yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Toshkent sh.	17 322,1	112,7
<i>tumanlar:</i>		
Bektemir	474,0	109,4
Mirzo Ulug'bek	1 715,8	112,5
Mirobod	2 860,8	114,3
Olmazor	994,1	122,5
Sirg'ali	796,1	88,4
Uchtepa	824,4	110,0
Chilonzor	1 885,1	126,1
Shayxontohur	1 661,2	106,9
Yunusobod	3 071,3	115,8
Yakkasaroy	983,0	93,8
Yashnobod	1 971,2	123,3
Tumanlardan tashqari	85,1	91,5

Ichki talabni muvozanatli rag'batlantirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvatlash bo'yicha ko'rilayotgan choralar xizmatlarga bo'lgan iste'mol talabining tuzilmasidagi o'zgarishlarni ta'minladi. Transport va mobil aloqa xizmatlari, oilaviy tadbirlar va dam olishni tashkil qilish, internet xizmatlari, maishiy, sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab ortdi.

2020-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlari tuzilmasi, % da



Joriy davrda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi eng katta 31,8 %ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, eng yuqori ulush savdo xizmatlari (22,7 %), transport xizmatlari (10,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (8,9 %), boshqa xizmatlar (5,0 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (4,8 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda (4,3 %), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (3,6 %), shuningdek me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (2,8 %) kuzatildi.

2020-yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 5 505,7 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1 869,7 mlrd. so'mga oshdi.

**2020-yil yanvar-mart oylarida tumanlar kesimida
moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati, % da**




2020-yil yanvar-mart oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlarning o'sishi Chilonzor (166,0 %), Mirzo Ulug'bek (155,2 %) va Uchtepa (150,1 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

Boshqa tumanlarga nisbatan shu davr uchun o'sish sur'atlari Olmazor (105,7 %), Bektemir (102,9 %), Sergeli (92,2 %) tumanlarida sezilarli emas.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 93,0 %ni tashkil etdi.

**2020-yil yanvar-mart oylarida
moliyaviy xizmatlar tuzilmasi, % da**



- Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar
- Sugu'rta xizmatlari
- Yordamchi moliyaviy faoliyat

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi iqtisodiy qarorlar qabul qilish yo'lidan bormoqda. Shunday qilib savdoda qisqa vaqt ichida uning kichik va eng chakana tashkilotning kichik shakllari, kichik-chodirlar, do'konchalar, peshtaxtalar, yengil konstruksiyali va yarmarka turidagi pavilionlar soni ko'paymoqda.

Kichik savdogarlarning yordami bilan iste'mol bozorini to'ldirish muammosi tezda hal qilindi, xaridor esa buning natijasida mahsulotni tanlash imkoniyatiga ega bo'ldi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida savdo xizmati muhim rol o'ynab, bunda, ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani amalga oshiradigan, tovarlar ishlab chiqarish hajmi va tuzilmasiga, shuningdek, ularning turlari va sifatini yaxshilashga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

(dastlabki ma'lumotlar)


2020-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi savdo xizmatlarining ulushi 22,7 %ni tashkil etib, bu 3 939,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Chakana savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb yarmini – 46,3 %ga to'g'ri keladi.

2020-yil yanvar-mart oylarida ulgurji savdo (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) xizmatlarining ulushi 45,6 %ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 8,1 %ni tashkil etdi.

2020-yil yanvar-mart oylari uchun savdo xizmatlari tuzilmasi, % da




Transport xizmatlari hajmining oshishi yuk va yo'lovchi tashish xizmatlariga bo'lgan talabning ortishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida turistik faoliyatning jadal rivojlanishi, savdo tarmog'inining kengayishi, qurilish bo'yicha loyihalarni yanada amalga oshishi, binolar va inshootlarni, shuningdek transport-logistik infratuzilmani rekonstruksiya qilish bilan bog'liq.

(dastlabki ma'lumotlar)

Hozirgi kunda Toshkent shahrida transport infratuzilmasini rivojlantirish va mamlakatning barcha yo'nalishlari hamda transportning barcha turlari bilan yuk va yo'lovchilarni tashishdagi ta'minlash uchun katta imkoniyatlarga ega.

Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng ko'p talabga ega hisoblanadi.

2020-yil yanvar-mart oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tuzilmasi, % da



Transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 64,2 % ni tashkil etadi.

Bundan tashqari, saqlash va yordamchi transport xizmatlari 31,1 % tashkil qilgan bo'lsa, temir yo'l transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar – 2,6 %, kuryerlik va pochta faoliyati ulushi esa 2,1 %ga yetdi.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda bozorni zamonaviy axborot texnikasi va aloqa vositalari bilan jadal to'ldirish yuz bermoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yuqori texnologiyali innovatsion ishlanmalardan foydalanish korxonalarda boshqaruv va texnologik jarayonlar samaradorligini oshirishga, iqtisodiyotning turli sohalarida tovarlar va xizmatlarning yangi bozorlarini


yaratishga va mavjud bozorlarni kengaytirishga yordam beradi va bu oxir-oqibat aholi hayotining yaxshilanishiga olib keladi.

2020-yil yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 1 236,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sishi 18,9 %ga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmdagi ulushi 8,9 %ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va hokazo) egallab, uning ulushi 66,5 %ni tashkil etdi.

**2020-yil yanvar-mart oylarida
aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tuzilmasi, % da**



Joriy davrda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida nashriyotchilikning ulushi 8,0 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa shu kabi xizmatlarning ulushi – 12,7 %, axborot sohasidagi xizmatlari - 4,7 %, boshqa xizmatlar – 8,1 %ni tashkil etdi.

(dastlabki ma'lumotlar)


Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli ixtisoslashgan sohalarda yuqori darajadagi mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi mumkin.



Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2020-yil yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 833,7 mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan 172,0 mlrd. so'mga ko'paydi.

2020-yil yanvar-mart oylarida tumanlar kesimida ta'lim sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi, mlrd.so'm.




Ta'lim sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi Yunusobod tumanida qayd etildi. 2020-yil yanvar-mart oylarida 136,4 mlrd. so'mga yetdi.

Buning sababi oliy o'quv muassasalarining to'lov-kontrakt asosida xizmat ko'rsatuvchi eng ko'p qismi, shuningdek xorijiy oliy o'quv muassasalarining filiallarining bu yerda joylashganligidir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar bo'yicha yuqori o'sish sur'ati Chilonzor tumanida – 128,3 %ni tashkil etdi.


2020-yil yanvar-mart oylarida tumanlar kesimida ta'lim sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



Bundan tashqari, ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'ati Yashnobod (122,9 %), Yunusobod (122,3 %) tumanlarida qayd etildi.

2020-yil yanvar-mart oylarida eng past o'sish sur'ati Mirzo Ulug'bek tumanida – 69,8 % qayd etildi.


Yashash va ovqatlanish xizmatlari



2020-yil yanvar-mart oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 96,3 %ni tashkil etdi, hajmi esa 81,6 mlrd. so'mga oshdi va 620,3 mlrd. so'mga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 74,1 % bilan ustunlik qiladi.

2020-yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tuzilmasi, % da




- Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar
- Yashash xizmatlari

(dastlabki ma'lumotlar)

Joriy yilning oldingi davriga nisbatan yanvar-mart oylarida yashash bo'yicha xizmatlar hajmi 81,6 mlrd. so'mga oshdi, ulushi 3,6 %ni tashkil etdi. Ushbu turdagi xizmatlarning o'sishiga dam olish uylari, bolalar lagerlari, kottejlar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga bo'lgan talabning oshgani o'z hissasini qo'shdi.

2020-yil yanvar-mart oylarida tumanlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi va o'sish sur'ati




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng yuqori hajmi Yunusobod tumanida 151,4 mlrd. so'mni tashkil etdi, 2020-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 83,6 %ni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng kichik hajmi Bektemir tumanida – 5,9 mlrd. so'm qayd etilib, 104,4 % tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlarining eng yuqori o'sishi Shayxontohur tumanida qayd etildi (126,9 %). Bundan tashqari, Yashnobod (107,9 %) va Chilonzor (103,9 %) tumanlarida xizmatlar o'sishi kuzatildi.

2020-yil yanvar-mart oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 345,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 121,9 %ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning tumanlar ulushida taqqoslanishi, % da



Toshkent shahrida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirish, aholining yuqori sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularga maxsus va yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan, eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada isloh qilish aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirishda ijobiy natijalarga erishishga muvaffaq bo'lindi.

Tumanlar orasida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha yetakchi o'rinni Olmazor tumani egalladi, joriy yilda o'tgan yilning mos davriga nisbatan hajmi 39,1 mlrd. so'mga ko'paydi. Uning sog'liqni saqlash sohasidagi ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 22,6 %ni tashkil etdi.

(dastlabki ma'lumotlar)

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ulush Mirzo Ulug'bek (18,4 %) va Chilonzor (15,5 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy davrda sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi xizmatlar ulushi nisbatan katta bo'lmagan tumanlar Bektemir (0,6 %) va Sirg'ali (1,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib hayot sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir.

Mamlakatimizda post-industriyadan keyingi axborot jamiyati shakllanar ekan, aholining ehtiyojlari tobora o'sib borishi va ularning xilma-xilligi kengayib borayotganligi sababli, xizmat ko'rsatish sohasining roli tobora ortib bormoqda.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

71-230-88-15